

MINTAQA SANOAT TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Srajidinova Nodira Shavkatovna

Qarshi davlat universiteti

“Iqtisodiyot” kafedrasi o‘qituvchisi

nodirasrajiddinova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada mintqa sanoat tuzilmasini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Tadqiqotda hududiy sanoat tarkibini diversifikatsiya qilish, yuqori qo‘shilgan qiymatli tarmoqlar ulushini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda resurslardan oqilona foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari asoslab berilgan. Shuningdek, mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish, klasterlashuv jarayonlarini rivojlantirish va investitsion muhitni yaxshilash orqali sanoat samaradorligini oshirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Natijada, sanoat tuzilmasini maqbullashtirish mintaqaning raqobatbardoshligini kuchaytirishi, yalpi hududiy mahsulot hajmini oshirishi hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: mintqa iqtisodiyoti, sanoat tuzilmasi, iqtisodiy samaradorlik, optimallashtirish, diversifikatsiya, klasterlashuv, investitsiya siyosati, hududiy rivojlanish, innovatsiya, raqobatbardoshlik.

KIRISH.

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi, raqobat muhitining keskinlashuvi hamda texnologik yangilanish sur‘atlarining jadallashuvi mintaqalar iqtisodiy rivojlanish modelini tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sharoitda iqtisodiy o‘sish nafaqat ishlab chiqarish hajmining ortishi, balki sanoat tuzilmasining sifat jihatidan takomillashuvi, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan tarmoqlar ulushining kengayishi va resurslardan samarali foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, mintqa sanoat tuzilmasini optimallashtirish masalasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mintqaviy sanoat tarkibining nomutanosibligi, xomashyo yo‘nalishidagi tarmoqlarning ustunligi, texnologik darajaning pastligi hamda ishlab chiqarishning hududiy konsentratsiyasi iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday sharoitda sanoatni diversifikatsiya qilish, innovatsion ishlab chiqarishlarni rivojlantirish, klasterlashuv jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash va investitsion resurslarni ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish orqali sanoat tuzilmasini maqbullashtirish zarurati yuzaga keladi. Ilmiy adabiyotlarda sanoat tuzilmasi va iqtisodiy samaradorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik turli nazariy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan bo‘lsa-da, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda optimallashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi yetarli

darajada kompleks o'rganilmagan. Ayniqsa, mintaqalar kesimida tarmoqlararo mutanosiblikni ta'minlash, yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni kengaytirish hamda sanoat siyosatini samarali institutsional mexanizmlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqotning maqsadi – mintaqa sanoat tuzilmasini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish hamda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, iqtisodiy-statistik usullar, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy sanoat siyosatini takomillashtirish, investitsiya oqimlarini samarali boshqarish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Mintaqa sanoat tuzilmasini optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda strukturaviy transformatsiya, sanoat siyosati va hududiy rivojlanish nazariyalari doirasida keng yoritilgan. Sanoat tuzilmasidagi siljishlar mehnat unumdorligi, yalpi hududiy mahsulot (YHM) o'sishi va eksport salohiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [1]. Strukturaviy o'zgarishlar nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy o'sish jarayonida resurslarning past unumdorlikli tarmoqlardan yuqori qo'shilgan qiymatli va innovatsion sohalarga ko'chishi umumiy samaradorlikni oshiradi [2]. Ayniqsa, sanoatning yuqori texnologik segmentlarini rivojlantirish hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi asosiy omil sifatida baholanadi [3]. Zamonaviy sanoat siyosati konsepsiyalarida mintaqaviy darajada selektiv qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, klasterlashuv jarayonlari va global qiymat zanjirlariga integratsiyalashuv muhim yo'nalish sifatida ko'rsatib o'tiladi [4]. Klaster nazariyasi doirasida sanoat subyektlari o'rtasidagi kooperatsiya va innovatsion hamkorlik hududiy iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi [5]. Raqamli transformatsiya va yashil iqtisodiyot sharoitida sanoat tuzilmasini modernizatsiya qilish zarurati yanada dolzarb bo'lib bormoqda. So'nggi tadqiqotlarda sanoatni dekarbonizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik innovatsiyalarni joriy etish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida baholanmoqda [6]. Shu bilan birga, sanoat tarkibini diversifikatsiya qilish eksport barqarorligini ta'minlash hamda tashqi shoklarga nisbatan iqtisodiy chidamlilikni kuchaytiradi [7]. Hududiy rivojlanish bo'yicha tadqiqotlarda sanoat tuzilmasini optimallashtirish jarayoni institutsional muhit, investitsion iqlim va infratuzilma rivojlanganligi bilan uzviy bog'liqligi qayd etiladi [8]. Xususan, investitsiya oqimlarini yuqori samarali tarmoqlarga yo'naltirish mexanizmlari iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishi mumkin [9]. Mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham mintaqaviy sanoat tarkibini takomillashtirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va innovatsion rivojlanish orqali hududiy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari tadqiq etilgan [10]. Biroq mavjud tadqiqotlarda sanoat tuzilmasini optimallashtirish mexanizmlarini kompleks tizimli yondashuv asosida ishlab chiqish yetarli darajada yoritilmagan. Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqa sanoat tuzilmasini optimallashtirish iqtisodiy samaradorlikni

oshirishning muhim strategik yo'nalishi hisoblanadi. Shu bilan birga, hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda, institutsional, investitsion va innovatsion omillarni integratsiyalashgan mexanizm asosida tadqiq etish zarurati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqot mintaqa sanoat tuzilmasini optimallashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va tizimli yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini strukturaviy o'zgarishlar nazariyasi, hududiy rivojlanish konsepsiyasi hamda sanoat siyosati tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqotning empirik bazasini rasmiy statistika ma'lumotlari, milliy va xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda hududiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tashkil etadi. Metodologik yondashuv natijasida sanoat tarkibini optimallashtirishning institutsional, investitsion va innovatsion mexanizmlarini aniqlash hamda ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini kompleks baholash imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Jahonda sanoat tuzilmasining iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, mintaqaviy sanoat tuzilmalarini rivojlantirishning innovatsion usullarini joriy etish, tizimli va strategik yondashuvlar asosida funksional modellar integratsiyasini takomillashtirish hamda iqtisodiy samaradorlikka erishishda boshqaruvning moslashuvchan va samarali usullarini qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarda sanoat rivojlanishi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish bilangina emas, balki tuzilmaning sifat jihatdan takomillashuvi, texnologik modernizatsiya va boshqaruv samaradorligining oshirilishi bilan bog'liq holda talqin etilmoqda. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beruvchi asosiy omillarni boshqarish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur jarayonda ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, energiya tejankor texnologiyalarni joriy etish va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish muhim omillar sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekistonda ham sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini pasaytirish va raqobatbardoshlikni oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, mintaqa sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslarini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, tarmoqlarni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mahalliy mineral xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish hamda qurilish materiallari eksportini oshirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmoqda. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta'minlashda qurilish materiallari sanoati korxonalarining mulkiy va tashkiliy-huquqiy shaklini ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tarmoq boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv xarajatlarini samarali taqsimlash muhim ahamiyat

kasb etadi. Bunda iqtisodiy samaradorlikka ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillarning prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish va ularni tizimli ravishda monitoring qilish zarur. Sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish xususiyatlari bo'yicha o'xshash guruhlarini korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli va texnologik jarayonlari bilan muvofiqlashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, sanoat korxonalari uyushmalari doirasida boshqaruv xarajatlarini umumiy xarajatlar tarkibidagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlash mexanizmini joriy etish boshqaruv samaradorligini oshirishni rag'batlantiradi. Sanoat tuzilmasidagi tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlashni muvofiqlashtiruvchi maxsus bo'linmalarni tashkil etish orqali tarmoq boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa kichik va o'rta biznes subyektlarining sanoat zanjiriga integratsiyalashuvini kuchaytiradi. So'nggi yillarda respublikamizda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar natijasida yangi iqtisodiy model shakllanib, jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuv jarayonlari jadallashdi. Sanoat sohasida narx siyosatini takomillashtirish, soliq yukini optimallashtirish, xususan qo'shilgan qiymat solig'i stavkasini pasaytirish, eksportni rag'batlantirish, bojxona boshqaruvini soddalashtirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Hozirgi bosqichda sanoat korxonalarini takomillashtirish orqali yuqori samaradorlikka erishish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Har bir investitsiya birligi iqtisodiy qaytim berishi zarur. Shu ma'noda, xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalar va ilg'or uskunalarni joriy etish sanoat korxonalarida ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalarning asosiy qismi yangi texnologik jihozlarni o'rnatishga yo'naltirilmoqda, bu esa ko'plab sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini 48-70 foizgacha oshirish imkonini bermoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida asosiy vazifa ishlab chiqarish quvvatini oddiy kengaytirish emas, balki asosiy fondlardan foydalanish samaradorligini oshirishdir. Ya'ni har bir so'm asosiy kapital hisobiga ko'proq mahsulot ishlab chiqarish muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi. Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik tushunchasi ko'pincha korxona samaradorligi va boshqaruv samaradorligi bilan izohlanadi. Biroq ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot samaradorligi kategoriyalari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois, samaradorlik konsepsiyasidan kelib chiqib, korxona darajasida samaradorlik turlarining konseptual modelini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Korxona darajasida samaradorlikning quyidagi to'rt turi ajratilishi mumkin:

1. Korxona samaradorligi;
2. Umumiy iqtisodiy samaradorlik;
3. Boshqaruv samaradorligi;
4. Mahsulot samaradorligi.

Ushbu samaradorlik turlarini aniqlash detallashtirilgan tahlil usullari va matematik modellashtirish asosida amalga oshirilishi lozim. Chunki bu usullar iqtisodiy jarayonlarning ichki bog'liqligini chuqur tahlil qilish va optimal boshqaruv

qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Korxona darajasidagi samaradorlik turlari o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ular mahsulotdan olinadigan daromad va uni ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlar nisbatini ifodalaydi. Sanoat tuzilmasini optimallashtirishda tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillarning o'zaro integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning uyg'un boshqaruvi mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish va qo'shilgan qiymat hajmini kengaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

To'rt turdagi samaradorlik modeli

Korxona darajasida samaradorlikni 4 turga ajratish mumkin:

1) Korxona samaradorligi

$$E_1 = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Umumiy aktivlar}}$$

2) Umumiy iqtisodiy samaradorlik

$$E_2 = \frac{\text{Qo'shilgan qiymat}}{\text{Resurslar}}$$

3) Boshqaruv samaradorligi

$$E_3 = \frac{\text{Natija}}{\text{Boshqaruv xarajatlari}}$$

4) Mahsulot samaradorligi

$$E_4 = \frac{\text{Mahsulot daromadi}}{\text{Tannarx}}$$

Umumlashtirilgan integral ko'rsatkich:

$$E_{total} = w_1 E_1 + w_2 E_2 + w_3 E_3 + w_4 E_4$$

(w - vazn koeffitsientlari)

Shu nuqtai nazardan, sanoat korxonalarini iqtisodiy rivojlantirish samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni tizimli boshqarish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur omillarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

- tashkiliy omillar; iqtisodiy omillar; texnologik omillar.

Yuqoridagi omillar asosida tadqiqotda sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ta'sir etuvchi tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillar quyidagi 1-jadvalga keltiladi.

1-jadval

Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillari tasnifi

Omillar guruhi	Tarkibiy elementlar	Ta'sir yo'nalishi	Kutilayotgan natija
Tashkiliy omillar	Korxona boshqaruv tuzilmasi, mulkiy shakl, kooperatsiya, klasterlashuv	Boshqaruv xarajatlari optimallashtirish	Rentabellik oshishi
Iqtisodiy omillar	Investitsiya hajmi, kredit resurslari, tannarx, narx siyosati	Xarajatlarni kamaytirish, daromadni oshirish	Qo'shilgan qiymat o'sishi

Texnologik omillar	Modernizatsiya, innovatsiya, samaradorligi, raqamlashtirish	Ishlab chiqarish unumdorligini oshirish	Mahsulot raqobatbardoshligi
--------------------	---	---	-----------------------------

Sanoat konyunkturasi o'zgaruvchan sharoitda resurslar bozoridagi narx dinamikasini uzoq muddatli modellashirish usullaridan foydalanish zarur hisoblanadi. Bozor sharoitidagi tebranishlar, xom ashyo narxlarining o'zgarishi va talab tarkibidagi siljishlar korxonalarni yangi resurs bozorlarini izlashga va ishlab chiqarish tuzilmasini qayta ko'rib chiqishga majbur etadi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarishni tashkil etishda umumiy foyda nazariyasiga asoslangan iqtisodiy yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Marjinal (chegaraviy) foydalilik nazariyasiga ko'ra, har bir resurs birligi qo'shimcha qancha foyda keltirishini aniqlash iqtisodiy qaror qabul qilishning asosiy mezonidir. Iste'molchi nuqtai nazaridan qaralganda, resurs birligining chegaraviy foydaliligi uning qanchalik ehtiyojni qondirishi bilan belgilanadi. Ishlab chiqaruvchi nuqtai nazaridan esa har bir qo'shimcha resurs birligi qancha qo'shimcha daromad (chegaraviy daromad) keltirishini aniqlash zarur bo'ladi.

Korxona foydasini maksimallashtirish sharti klassik iqtisodiy nazariyaga muvofiq quyidagicha ifodalanadi:

$$MR = MC$$

bu yerda: MR - chegaraviy daromad (marginal revenue), MC - chegaraviy xarajat (marginal cost).

Demak, ishlab chiqarish hajmi shunday darajada belgilanishi kerakki, qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulotdan olinadigan daromad qo'shimcha xarajatlarga teng bo'lsin. Shu nuqtadan ortiq ishlab chiqarish foyda kamayishiga, kam ishlab chiqarish esa imkoniyatlardan to'liq foydalanmaslikka olib keladi.

Korxona har bir qo'shimcha resurs birligining samaradorligini quyidagicha aniqlashi mumkin:

$$MP_r \times P = MR_r$$

bu yerda: MP_r - resursning chegaraviy mahsuldorligi, P - mahsulot narxi, MR_r - resursdan olinadigan chegaraviy daromad.

Agar:

$$MR_r > C_r$$

ya'ni resursning chegaraviy daromadi uning xarajatidan yuqori bo'lsa, resursdan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur yondashuv mintaqa sanoat tuzilmalarida barqaror boshqaruv jarayonlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Resurslar bo'yicha talab va taklifni muvozanatlashtirish, ishlab chiqarish hajmini optimal darajada belgilash hamda investitsion qarorlarni asoslash aynan chegaraviy tahlil orqali amalga oshiriladi. Biroq uzoq muddatli strategik rejalashtirish jarayonida metodologik murakkabliklar mavjud. Xususan: Birinchidan, foydalilik sub'ektiv kategoriya hisoblanadi. Iqtisodiy nazariyada foydalilikning aniq miqdoriy o'lchovi mavjud emas. Chegaraviy foydalilikning oshishi yoki kamayishi haqida xulosa qilish mumkin bo'lsa-da, uni


to'liq miqdoriy aniqlash amaliyotda murakkabdir. Ikkinchidan, resurslarning foydaliligini pul o'lchamida aniqlash doimo aniq natija bermaydi, chunki bozor narxlari konyunktura ta'sirida shakllanadi. Shu sababli mahalliy sanoat korxonalarida resurslarga nisbatan samarali strategiyani ishlab chiqishda ikki muhim metodologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

1. Iqtisodiy resurslarga ehtiyojni aniqlashda strategik rejalashtirishning umumlashtirilgan usullarini (prognozlash, ssenariy tahlili, elastiklik koeffitsientlari) qo'llash;

2. Ishlab chiqarish resurslarini hisobga olishda imkon qadar natural ko'rsatkichlardan (tonna, kVt/soat, ish soati va boshqalar) foydalanish.

Natural o'lchovlardan foydalanish resurslar samaradorligini real ishlab chiqarish natijalari bilan bevosita bog'lash imkonini beradi. Bu esa narx omillari ta'siridan xoli bo'lgan holda texnologik va tashkiliy samaradorlikni aniqlashga xizmat qiladi. 1-rasm

Mintaqa sanoat tuzilmalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Global sanoat konyunkturasi sharoitida resurslar narxining o'zgaruvchanligi, texnologik yangilanishlar sur'atining tezlashuvi hamda bozor talabining diversifikatsiyalashuvi ishlab chiqarish jarayonlarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Shu sababli sanoat tuzilmasini optimallashtirish faqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish bilan emas, balki resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan uzviy bog'liqdir.



1-rasm. Mintaqa sanoat tuzilmalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va ularning funksional integratsiyasi modeli

Nazariy jihatdan, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish umumiy foyda nazariyasi va chegaraviy tahlil ($MR = MC$) tamoyiliga asoslanadi. Korxona faoliyatida

foydani maksimallashtirish sharti sifatida chegaraviy daromad va chegaraviy xarajat tengligi ta'minlanishi zarur. Bunda resurslar taqsimoti strategik rejalashtirish va uzoq muddatli modellashtirish asosida amalga oshirilishi lozim. Ayniqsa, sanoat konyunkturasining o'zgaruvchan sharoitida prognozlash va ssenariy tahlili ishlab chiqarish hajmi hamda resurs ehtiyojini aniqlashda muhim metodologik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillarning o'zaro integratsiyasi sanoat tuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Tashkiliy omillar kooperatsiya va klasterlashuvni kuchaytirsam, iqtisodiy omillar investitsiya hajmi va rentabellik darajasini belgilaydi, texnologik omillar esa ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi. Ushbu omillarning uyg'unligi hududiy iqtisodiy o'sishning ichki drayverlarini shakllantiradi.

Rasmda mintaqa sanoat tuzilmalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tizimli yondashuv asosida aks ettirilgan. Model markazida ishlab chiqarish samaradorligi joylashgan bo'lib, u strategik rejalashtirish, chegaraviy tahlil ($MR = MC$), resurslarni muvofiqlashtirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari orqali shakllanadi.

Modelning birinchi komponenti - strategik rejalashtirish bo'lib, u prognozlash, ssenariy tahlili va resurslarni modellashtirish orqali uzoq muddatli ishlab chiqarish parametrlarini aniqlashni nazarda tutadi.

Ikkinchi komponent - chegaraviy tahlil - ishlab chiqarish hajmini optimal darajada belgilash uchun chegaraviy daromad va chegaraviy xarajalar tengligini ta'minlash tamoyiliga asoslanadi. Mazkur yondashuv resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash va foydani maksimallashtirish imkonini beradi.

Uchinchi komponent - resurslarni koordinatsiya qilish va optimallashtirish bo'lib, bunda tashkiliy va iqtisodiy uyg'unlik ta'minlanadi.


To'rtinchi komponent - ilg'or texnologiyalarni joriy etish - energiya samaradorligi, raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, modelda an'anaviy tizimdan ilg'or tizimga o'tish jarayoni ko'rsatilgan. Bu jarayon qo'shilgan qiymatni oshirish, resurslar balansini ta'minlash va texnologik modernizatsiya orqali hududiy iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi.

Umuman olganda, rasm mintaqa sanoat tuzilmalarini takomillashtirish jarayonida tashkiliy, iqtisodiy va texnologik omillarning o'zaro integratsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy mexanizmi ekanligini asoslab beradi.

Fikrimizcha, mintaqa sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda uning boshqaruv tuzilmasini to'g'ri tashkil qilish juda muhimdir. Kelajakda sanoat korxonalarini sifatli, raqobatbardosh va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlaydigan zamonaviy, ilg'or mashina-uskunalar bilan jihozlash orqali ularni modernizatsiya qilishni jadallashtirish, texnikaviy va texnologik qayta jihozlashni maqsadga muvofiq 2 rasm.

Mintaqa sanoat tuzilmasini boshqarishda doimiy nazoratga olinishi va sanoat tarmoqlarida strategik takomillashtirish uchun zaruriy resurslarni shakllantirish hamda

lozim bo'lgan tashkiliy, maslahat-konsultativ, loyihalash, marketing va o'qitish kabi funksiyalarni amalga oshirishi lozim.



2-rasm. Mintaqa sanoat tuzilmalarini innovatsion boshqarish strategik strukturasi¹

Ushbu bo'linma faoliyatining asosiy yo'nalishlari sohada tadbirkorlik sub'ektlari bo'yicha yagona axborot bazasini yaratish, qurilish materiallari bozorini tahlil etish, tadbirkorlik faoliyati uchun qulay investitsion muhitlarni shakllantirish, o'quv mashg'ulotlari kurslarini, maslahat-konsultatsiya xizmatlarini tashkil etishdan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq. Ma'lumki, boshqaruv samaradorligi faqat boshqaruvning o'ziga emas, Butun korxona ishlab chiqarish samaradorligiga ham ta'sir ko'rsatadi. Mintaqa sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Global raqobat sharoitida resurslardan oqilona foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish va boshqaruv tizimini takomillashtirish sanoat tuzilmasining barqaror o'sishini ta'minlovchi muhim yo'nalishlardir.

XULOSA.

Mazkur tadqiqot natijalari mintaqa sanoat tuzilmasini optimallashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning strategik omili ekanligini tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, sanoat tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatli, innovatsion va eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar ulushining oshishi yalpi hududiy mahsulot o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi hamda mehnat unumdorligini sezilarli darajada kuchaytiradi. Sanoat tuzilmasining nomutanosibligi, xomashyo yo'nalishiga ortiqcha tayanish va texnologik darajaning pastligi iqtisodiy samaradorlikni cheklovchi asosiy omillar

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

sifatida aniqlandi. Shu bois, sanoatni diversifikatsiya qilish, klasterlashuv jarayonlarini kengaytirish va investitsiya resurslarini ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirish optimallashtirishning muhim mexanizmlari sifatida asoslab berildi.

Tadqiqot davomida sanoat tarkibini maqbullashtirish quyidagi yo‘nalishlarda samarali natija berishi ilmiy jihatdan isbotlandi:

- yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rivojlantirish;
- hududiy kooperatsiya va sanoat klasterlarini shakllantirish;
- investitsion muhitni yaxshilash va infratuzilmani modernizatsiya qilish;
- resurslardan samarali foydalanish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish.

Shuningdek, sanoat tuzilmasini optimallashtirish jarayoni institutsional islohotlar bilan uyg‘unlikda olib borilgandagina barqaror iqtisodiy o‘sish va hududiy raqobatbardoshlikni ta‘minlashi mumkinligi aniqlandi. Umuman olganda, mintaqa sanoat tarkibini maqbullashtirishga qaratilgan kompleks mexanizm iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda hududiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. World Bank. World Development Report 2024: Industrial Policy for Development. Washington DC, 2024.
2. McMillan, M., Rodrik, D. Structural Change and Economic Growth Revisited. Journal of Economic Perspectives, 2023.
3. OECD. Regional Outlook 2023: The Long-Term Implications of Structural Transformation. Paris, 2023.
4. UNIDO. Industrial Development Report 2024. Vienna, 2024.
5. Porter, M. Clusters and the New Economics of Competition. Updated edition, 2023.
6. International Energy Agency (IEA). Industry and Clean Energy Transitions Report 2024. Paris, 2024.
7. IMF. World Economic Outlook 2024: Resilience and Diversification. Washington DC, 2024.
8. OECD. Regions and Cities at a Glance 2024. Paris, 2024.
9. UNCTAD. World Investment Report 2024. Geneva, 2024.
10. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Hududiy sanoat rivojlanishi bo‘yicha tahliliy hisobot, 2024.